

TALABALARNING KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Mamataliyeva Mohinur Ilhom qizi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti.

mohinur.mamataliyeva.94@bk.ru

ANNOTATSIYA. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi hamda ularda belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda maxsus fanlarni o‘qitishda talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari, omillari, imkoniyatlari va qismlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Ta‘lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarida ta‘limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda.

Kalit so‘zlar: Professional ta‘lim, kreativlik, ta‘lim dasturi, reproduktiv, innovatsion yondashuv, shakl, metod, vosita, intellektual rivojlanish, kreativlik yo‘l xaritasi.

OPPORTUNITIES TO DEVELOP CREATIVE QUALITIES OF STUDENTS

ABSTRACT. Based on the concept of the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 and the goals and tasks set in them, it is important to study the stages, factors, opportunities and parts of the development of student creativity in the teaching process. Issues of content and quality of education are considered a priority in society. In developed and developing countries of the world, ways are being sought to technologicalize education and to develop education, to increase its effectiveness.

Keywords: Professional education, creativity, curriculum, reproductive, innovative approach, form, method, tool, intellectual development, creative roadmap.

KIRISH. Mamlakatimizda ta‘lim sohasini takomillashtirish bo‘yicha asosiy hujjatlardan biri bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlovchi ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va kompyuter tarmoqlari orqali tashkil etish muhimligi to‘g‘risida alohida to‘xtalib

o‘tilgan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunini ta’lim tizimining tayanchi bo‘lib xizmat qilmoqda deb aytishimiz mumkin.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.03.2020 yildagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-5953-sonli farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.02.2020 yildagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623sonli qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.09.2019 yildagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5812 sonli farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6097 sonli farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2017 yildagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2829 sonli qarori hamda 2021 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-42 sonli qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda qishloq va suv xo‘jaligi sohasida oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlari kabi bir qator ta’limga oid qonun hujjatlarida keltirilgan ustuvor vazifalarga muvofiq ta’lim tizimida kompetentsiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish masalasi yuzasidan ilmiy-tadqiqot jarayonida izlanishlar olib borish va yangi metodlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi [1].

Dunyo miqyosida har bir mamlakat ta’lim tizimida zehqli, iqtidorli, qobiliyatli va ijodkor insonlarni o‘qitish hamda ularni jamiyat taraqqiyotiga tayyorlash ustuvor vazifa sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. YUNESKONing ma’lumotlariga ko‘ra, “turmush uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi, barqaror rivojlanishga erishish maqsadini ta’minlovchi maskan oliy ta’lim muassasasi bo‘lib qolmoqda va dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida oliy ta’lim olishga ehtiyoj bugungi kunda jadal o‘sib bormoqda. Bu holat statistik ma’lumotlarga ko‘ra rivojlanmagan mamlakatlarning 8% yoshlari universitetlarda tahsil olayotgan bo‘lsalar, eng rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatgich 74% ni tashkil qilayotganligi qayd etilgan”. Oliy ma’lumotga ega bo‘lish jahon miqyosida muhim ehtiyoj bo‘lib

qaralmoqda, shu bilan birga oliy ta'lim muassasasidagi maxsus fanlarni o'qitishda talabalarning kreativ qobiliyatlari hamda ularning aqliy qobiliyati va tafakkurini rivojlantirishini yanada rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ta'lim sohasi uchun maxsus fanlarni o'qitishda talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga e'tibor qaratish kerak. Birinchi navbatda talabalarda nazariy va amaliy ijodiy faoliyatga tayyorgarlik holatini o'rganish, o'quvchilarning faol ijodiy faoliyatiga samarali tayyorgarlik ko'rishga yordam beradigan didaktik vositalarni aniqlash, talabalarning ijodiy faoliyatiga tayyorgarlik modelini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan ijodiy faoliyatga tayyorgarlik vositalarining samaradorligini tajriba sinovini amalga oshirish hisoblanadi [4].

Talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va ularni oshirish yo'llari haqida mamlakatimiz va boshqa qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Mamlakatimizda mutaxassislarining ijodiy faolligi, shuningdek, talabalarda tanqidiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, ilmiy-didaktik asoslari respublikamiz olimlaridan R.H.Djuraev, Sh.E.Qurbanov, A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, U.I.Inoyatov, A.R.Xodjaboev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, Sh.S.Sharipov, F.M.Zakirova, O.X.Turakulov, J.A.Xamidov, R.D.Shodiev, O.A.Quysinov va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativlik masalalarining pedagogik-psixologik aspektlari, talabalarning o'z-o'zini ijodiy faollashtirish, ularning kreativ qobiliyatlar asosida muhitini tashkil etish muammolari Dj.Gilford, Ye.Torrens, A.Leontev, A.Maslov, K.Rodgers, N.Ilin, M.Davletshin, V.A.Slastenin, G.Chijakova, I.Ridanova, Yu.Kruglova, J.Yo'ldoshev, N.Azizxodjaeva, O'.Tolipov, E.G'ozievlar kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan [5].

Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantirish olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ ijodkor shaxs bo'lishi zarur. O'qituvchining o'zi kreativ ijodkor bo'lsa, talabalarda ham kreativlik rivojlanadi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Patti Drepreau ta'limiga ko'ra darslarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi" ga muvofiq quyidagi 4 yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi xarakteristik pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

1. Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
2. Talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;

3. Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
4. Kutiladigan natija;

Kreativ fikrlash xar bir sohada yaqqol aks etishi mumkin. O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashuvda aks etadi [6,7].

NATIJALAR. Maxsus fanlarni o'qitishda talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuniga aniqlik kiritildi, maxsus fanlarni o'qitishda talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish sharti sifatida fanlar asoslarini, maxsus va umumtexnika fanlarini integratsiyalash zarurligi ochib berildi, maxsus fanlarni o'qitishda talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ularning ijodiy faoliyatiga samarali tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari (integratsiyalashgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar, muammoli usul) asoslab berish va eksperimental sinovdan o'tkazish rejalashtirildi.

MUHOKAMA. Hozirda texnika yo'nalishi talabalari texnologiya va texnologik jarayonlarga qo'yilgan pedagogik, texnik hamda texnologik muhim belgilari to'g'risida ma'lumotga to'liq ega emaslar. Jamiyatning ijodiy va malakali kadrlarga bo'lgan dolzarb ehtiyoji, ikkinchi tomondan — ijodiy faoliyat darajasining pasayishi, o'smirlik davrida o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqmasligi; reproduktiv va samarali faoliyat holatining optimal nisbatlarini buzish, bilimlarning ko'payishi tufayli yuzaga keladigan; talabalarning intellektual rivojlanishida ortiqcha o'sish bilan ifodalangan aqliy va hissiy shaxsiy fazilatlarining noqulayligi, bilim to'plash kabilar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishda shuningdek talabalarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuv shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ishlarini yo'lga qo'yish lozim. Talaba oliy ta'lim muassasasidagi maxsus fanlarni o'rganar ekanlar ularda nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarni shakllantirish, pedagogik amaliyot jarayonida ushbu ko'nikmalarni malakaga aylanishiga, kasbiy faoliyatlarini boshlashlarida ularda kreativ qobiliyatlarining yanada oshishiga xizmat qiladi. [3].

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish, bunda ularning kreativ faoliyatlarini tashkil etish hamda samarali yo'llarini belgilash lozim. Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat

qiladi. Talabalarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Mutaxassislar ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko'nikma va malkalarini rivojlanishining o'zgarishini baholab borish lozim. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta'minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020yildagi 637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.03.2020 yildagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" gi PF-5953-sonli farmoni;
3. Ismailova Z.Q., Maxsudov P.M., Ergashev O.K., Matkarimov K.J., "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2018. -7-bet.
4. Долгоруков А. Метод кейс-стади как современная технология профессионально-ориентированного обучения:
<http://www.vshu.ru/lections>.
5. Ismailova Z.K. O'qitishning zamonaviy texnologiyalari. T:Moliya.
6. Drapeau Patti. Talabalar kreativligini rivojlantirish (innovatsion fikrlash va muammolarni hal qilishni rivojlantirishning amaliy usullari). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014
7. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi / Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013. – 14-bet